

MUNIS XORAZMIY LIRIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shabunaliyeva Himoyatxon O'tkirbek qizi
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Munisning “Munis ul-Ushshoq” asari o'zbek adabiyotidagi sevgi, sadoqat va ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi muhim asarlardan biridir. Asarda inson qalbining nozik tuyg'ulari, muhabbat va insoniylik g'oyalari tasvirlangan. Shu bilan birga, asar xalq og'zaki ijodi va adabiy meros bilan bog'lanib, davr ruhini aks ettiradi. Ushbu maqolada Munis Xorazmiyning „Munis ul-ushshoq” asarining xos xususiyatlari, undagi g'azal va ruboiylarning ma'no mohiyati haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Munis Xorazmiy, Munis ul-ushshoq", ishq, falsafa, tasavvuf, tanosub, Alisher Navoiy

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos iz qoldirgan ijodkorlardan biri bu — Munis Xorazmiydir. U faqat shoir emas, balki tarixchi, tarjimon va madaniyat arbobi sifatida ham tanilgan. Munis Xorazmiy asarlari, xususan, uning lirik she'rlari, o'z davrining ruhiy-ma'naviy muhitini, shoirning ichki dunyosini va estetik qarashlarini aks ettiradi. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, lug'aviy ma'nosi “ulfat”, “hamdam”, “do'st” demakdir. U dastlabki ma'lumotni tug'ilgan qishlog'ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qishni davom ettirgan. Munis madrasa ta'limidan so'ng mustaqil o'qishga berildi, tez fursatda arab, fors tillarini bilib olib, Sharq mumtoz adabiyotini izchil o'rganishga kirishdi. Nizomiydan tortib, to o'zi yashagan davrga qadar o'tgan so'z san'atkorlarining ijodi bilan tanishib chiqdi. Yosh Munisning ilm olish yo'lidagi bunday jiddiy qadamlari, shubhasiz, uning kelgusida buyuk talant egasi bo'lib chiqishidan darak berar edi. 1800 yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munisni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san'atkorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she'riyatga, ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti o'ziga xos ma'rifiy ruh, aruz an'analari va klassik she'riyatning davomiyligi bilan ajralib turardi. Shu davrda ijod qilgan Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778–1829) ushbu adabiy maktabning yirik vakillaridan biri bo'lib, uning “Munis ul-ushshoq” devoni o'zbek mumtoz she'riyatining eng muhim yodgorliklaridan hisoblanadi. Devon nafaqat shoirning badiiy qarashlarini, balki Xiva adabiy muhiti, o'zbek aruz she'riyati va tasavvufiy-falsafiy mushohada an'alarini aks ettiruvchi qimmatli manbadir. “Munis ul-ushshoq” devoni 1804–1813 yillar

davomida shakllangan bo'lib, shoirning turli davrlarda yozgan she'rlari tartibga solinib, katta she'riy majmua ko'rinishiga keltirilgan. Devon tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi. G'azallar – devonning asosiy qismini tashkil etadi, muxammas va musaddaslar – Navoiy, Fuzuliy singari shoirlar an'alarini davom ettiradi.

Munis Xorazmiy ijodida g'azal janri yetakchi o'rin tutadi. Uning lirikasi asosan ishqiy, falsafiy, ijtimoiy-ma'naviy mavzularni qamrab oladi. Shoir o'z g'azallarida gohida ishq dardini, gohida esa hayotning o'tkinchiligi, ilohiy haqiqat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni falsafiy yondashuvda yoritadi. Devonda jami 20 ming misra atrofida she'r mavjud bo'lib, bu Munisning sermahsul ijodkor bo'lganidan dalolat beradi. Devondagi janrlar klassik Sharq she'riyati an'alarini to'liq aks ettiradi. G'azallar devonning markaziy qismi bo'lib, ularda: ishqning ilohiy va majoziy talqinlari; vafosiz yor, sadoqat, hijron; komil inson fazilatlarini; tasavvufiy mushohadalar yetakchi mavzular sifatida namoyon bo'ladi.

Munis Xorazmiy g'azallarining markazida ko'pincha ishq turadi. Bu yerda ishq faqat dunyoviy emas, balki ilohiy ma'no kasb etadi. Shoir ishqni qalbni poklovchi, insonni kamolga yetkazuvchi qudrat sifatida tasvirlaydi. Misol uchun, u sevgini ruhiy tozalikka, o'zlikni anglashga eltuvchi vosita sifatida ko'radi.

Davlatning boridadurlar barcha olam oshno.
Qaytgach davlat, jahonda topilur kam oshno.

Davlat (ya'ni boylik, qudrat, mavqe) bor paytda hammayoq do'st oshnoga to'lib ketadi. Lekin davlat ketgach (ya'ni inson qiyinchilikka duchor bo'lsa), haqiqiy oshno — sadoqatli do'st kam topiladi. Mansab yoki boylik paytida ko'p do'st bo'ladi, lekin asl do'st faqat og'ir kunlarda bilinadi. Davlatlar va Olam - Bu misralarda davlatlar va odamlar o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan farqlar va o'rtadagi begonalik ko'rsatiladi. Davlatlar o'rtasidagi tafovutlar va odamlar orasidagi g'am-g'ussa, hech kim bir-biriga to'liq oshno emasligi haqida so'zlanadi.

O'yla bekaslik meni mahzung'a topmish dastkim,
Bir kishi yo'qdur mango juz kulfat-u g'am oshno.

She'rda shoir o'zini mahzun, bekas, ya'ni yolg'iz deb tasvirlaydi. Uni faqat g'am va kulfat tushunadi. Hech kim yo'qki, uning holatini anglab, unga dil oshno bo'lsin. Yolg'izlik, tushkunlik va faqat g'amga oshno qalb. Bekaslik va Mahzunlik - She'rdagi "bekaslik" va "mahzunlik" obrazlari, insonning yakkaligi va o'zini begona his qilishi haqida gapiradi. Ishq va muhabbatning mutlaqo o'zgacha boshqacha tajriba ekanini ta'kidlaydi.

Baski, davron xohishi begonalig' solmoqdurur,
Bir-biriga bo'la olmas ikki hamdam oshno.

Zamonning, davrning o'zi odamlarni begonalashtirib qo'ygan. Ikki yaqin do'st ham endi bir-biriga yaqin bo'la olmaydi. Zamonaviy davrda insonlar orasida begonalik kuchaygan. Begonalik va Ishq - "Ishq aro ul nav erur vahshat" deb ta'riflangan holat,

insonning ichki dardini va mashaqqatlarini ifodalaydi. She'rda muhabbatning ba'zi hollarda og'ir va vahshatli tomonlari mavjudligini aytadi.

Kimki bo'ldi oshno, bot ayladi begonalig',

Topmadim bu davr aro bir ahdi mahkam oshno.

Do'st bo'ldim deganlar ham vaqt o'tib begona bo'lib ketdi. Biror bir sodiq, ahdiga sodiq oshno topilmadi. Sadoqatli do'st yo'qolgan, do'stlikda barqarorlik yo'q. Davron G'amlarining Begonaligi - Bu misra bilan shoir, hayotning o'zi, davronning o'zgaruvchanligini va insonlarga nisbatan begonaligini tushunishga harakat qiladi. Har bir inson o'z yo'lini topa olmaydi, va bu ba'zi hollarda umumiy bir vafo yoki muhabbatni izlashga to'sqinlik qiladi.

Gar vafo bo'lsa, birida bo'lg'ay erdi, ko'rmadim,

Bo'ldilar har nechakim avlodi odam oshno.

Agar vafo (sadoqat) bo'lganida, hech bo'lmasa bitta odamda bo'lardi. Lekin ko'p odamlar bilan tanishdim — hech birida sadoqat topmadim. Vafo — kamyob fazilat, odamlar orasida sadoqat yo'q.

Hajr ranjidan o'larga yetmishamkim, ko'rsalar

Holima tutg'ay azo begona, motam oshno.

Hijron (yaqin insondan ayriliq) sababli o'lay deb qolganimda ham, meni ko'rib begona kabi yuz o'girishadi, lekin motamda ishtirok etishadi.

Tiriklikda insonni tushunishmaydi, lekin o'lgach yig'laydilar — bu riyo.

Ishq aro ul nav erur vahshat meni majnuna'kim,

O'zgani demay, bo'la olmas ko'ngul ham oshno.

Shoir o'zini ishqda telba, Majnun holatida tasvirlaydi. Endi ko'ngli boshqa hech kimga ochilmaydi, hech kimga oshno bo'la olmaydi. Ishq qalbni yakka, begonalikka mahkum qiladi.

Dard chekmak, ashk to'kmak ishq eliga xosdur,

Har ko'ngulga dard, har ko'zga emas nam oshno.

Ishq — dard va ko'z yosh yo'lidir. Har bir qalbdan dard bo'lishi mumkin, lekin har bir ko'z yosh to'kmaydi. Dardni yashirin o'tkazuvchilar bor. Ishq — og'riqli yo'l, lekin har kim bu og'riqni ochiq ko'rsatmaydi.

Muniso, davron g'ami begona bo'lsa, tong emas

Kim, senga bo'lmish biyik donishvar Akram oshno.

Ushbu g'azalda atrofidagi insonlarning nokomilligidan iztirob chekayotgan, shu bilan birga o'zida ezgu fazilatlarni shakllantirishga urinayotgan orif shaxs kayfiyati ifoda etilgan. G'azalning lirik qahramoni topgan oshnolar, orttirgan do'stlar sinovdan o'tolmaganlar, ishonchni oqlolmaganlar. Chunki bundaylar davlatiga qarab do'stlik ixtiyor etgan kimsalardir

Xulosa

Munis Xorazmiy lirikasida ishq, falsafa, tasavvuf va ijtimoiy tafakkur uyg'unlashgan. Uning g'azallari o'z davrining adabiy va madaniy hayotini yoritish bilan birga, bugungi o'quvchi uchun ham chuqur ma'naviy-estetik zavq beradi. Uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining bebaho xazinasidir va hali-hanuz o'rganishga arzigulik manbadir. U o'zbek adabiyotida Navoiy an'analarini ijodiy davom ettirgan katta iste'dod egasidir. Munis o'zbek tilida ajoyib adabiy va tarixiy asarlar yaratdi va fors tilidagi ko'pgina tarixiy va adabiy asarlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima etishda tashabbus ko'rsatgan va husnixat maktabini yaratgan olimdir. U "Munisul-ushshoq" devoni, ma'rifiy-tarbiyaviy "Savodi-ta'lim" risolasi, "Firdavs-ul-iqbol" salnomasi hamda o'zbek tiliga o'giran "Ravzat-us-safo" (Mirxond) asari bilan o'zbek xalqi madaniyati tarixi xazinasiga munosib hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Munis, Shermuhammad. Munis ul-Ushshoq. Toshkent, 1957 yil.
- 2.Munis, Shermuhammad. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1980 yil.
- 3.Munis, Shermuhammad. Munis ul-Ushshoq devoni (qo'lyozma). Toshkent, O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, 1970 yil.
- 4.R.Majidiy.Munis Xorazmiy.Jurnal „Guliston’’ 1935.
- 5.V.Vohidov.O'zbek adabiyoti tarixidan -Toshkent:1961.
6. Nazarov, O. Munis ul-Ushshoq devoni: ilmiy tahlil. Toshkent, 2020 yil.